



MASLAHAT ILLOKUTIV MAZMUNGA EGA NUTQIY TUZILMALAR

SamDCHTI
Ingliz tili fakulteti
DSc., prof
N.J. Sulaymanova

Annotatsiya: Mazkur maqola illokutiv maqsad aniq bir nutqiy aktning mazmuni shakllanishiga turtki beruvchi hodisa ekanligi, illokutiv maqsad vaziyatga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi va ushbu hodisa kommunikativ mazmunini aniqlash (communicative implicature) manbasiga aylanishi, maslahat nutqiy akti vositasida ifodalanadigan illokutiv maqsad negizida suhbatdoshni ma‘lum bir harakatni bajarishga undash istagi turishi, uning mazmunida ijobiy baho komponenti mavjud bo‘lishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: nutqiy aktlar, illokutiv, nutqiy tuzilma, tagma’no, olam lisoniy manzarasi.

Baholovchi munosabat ifodalanadigan nutqiy aktlar qatoriga maslahat illokutiv mazmunga ega nutqiy tuzilmalarni ham kiritish zarur. Ma’lumki, illokutiv maqsad aniq bir nutqiy aktning mazmuni shakllanishiga turtki beruvchi hodisa sifatida ta’riflanadi. P.Graysning ta’biricha, “illokutiv kuch tushunchasi bir nechta unsurlardan iborat” [Grice 1985, 227]. Ayni paytda, illokutiv maqsad vaziyatga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va ushbu hodisa kommunikativ mazmunini aniqlash (communicative implicature) manbasiga aylanadi.

Maslahat nutqiy akti vositasida ifodalanadigan illokutiv maqsad negizida suhbatdoshni ma‘lum bir harakatni bajarishga undash istagi turadi. Uning mazmunida ijobiy baho komponenti mavjud bo‘ladi. Izohli lug‘atda tavsiflanishicha, maslahat biron ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq tarzidagi fikr, mulohaza; tavsiya tarzidagi gap; kengash, fikr olishish kabi ma’nolarga ega [O‘TIL, 2-jild 2006: 551]. Ushbu ma’nolarning nutqiy voqelanishida suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi, adresatning maslahatga ehtiyoji, qiziqishi va berilayotgan maslahatning ijtimoiy-ahloqiy me’yorlarga mosligi kabi omillar asosiy mezon hisoblanadi. Ayniqsa, so‘zlovchining adresatga nisbatan ijtimoiy maqomi yuqoriligi muhimdir. Chunki yoshi kattaroq, intellektual darajasi yetarli va madaniy saviyasi baland shaxs bergan maslahat o‘z samarasiga tezroq erishadi va tinglovchini ushbu maslahatni ijobiy baholab, ma‘lum bir harakatni tezroq bajarishga unday oladi.

Bundan tashqari, maslahat nutqiy aktining bajarilishida u yoki bu



etnomadaniyatga xos qonun-qoidalar ham o'z o'rnini topadi. Zero, maslahat asosan tarbiyaviy-didaktik mazmun ottenkasiga ega o'gitlardan tashkil topadi. Shu bois, o'zaro muloqot sharoitida uning ishtirokchilari hech tortinmasdan ming yillar davomida shakllangan, mazmunan sayqallangan falsafiy mushohadalar hosilasi bo'lgan maqollarga murojaat qiladi. Qiyoslang:

*Bolta bo'lsang, ur; kunda bo'lsang, chida;
Odob bilan baxt topilar, sabr bilan – taxt;
Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar, besabrlar o'z oyog'idan yitar;
Gap bilaman, deb og'zingga zo'r berma, ish bilaman deb – qo'lingga.
A fool may give a wise man counsel;
Don't teach your grandmother to suck eggs;
A king's chaff is worth than other men's corn;
If you want something done, ask a busy person;
If you would be well served, serve yourself.*

Ushbu verbal birliklardan foydalanishda so'zlovchi, birinchidan, jamiyatda qabul qilingan qoidalarga amal qilsa, ikkinchidan, o'z tajribasiga asoslangan holda boshqalarga qanday o'zini tutish borasida maslahat beradi.

Dialogik nutqda yuzma-yuz so'zlashish imkoniyatining mavjudligi muloqot ishtirokchilarini maslahat nutqidan foydalanishga undaydi.

Qiyoslang:

o'zbek tilida:

- *Bularga e'tibor qilmang, - deb shivirladi u Shamsi Sallohning qulog'i tagida. – Agar har bir narsaga e'tibor bersangiz infarkt bo'lib qolasiz. Bular hali yovvoyilikdan to'liq holos bo'lmagan.*

- *Qachon ketamiz, - dedi Shamsi Saloh, bu davradan yuragi siqila boshlaganini his qilib.*

- *Qachon ketish bizdan..... – dedi Ismoil Ali. [N.Eshonqul. Yalpiz hidi].*

ingliz tilida:

Louka: I have been insulted by everyone here. You set them the example. You owe me an apology.

Bluntschli: It's no use. He never apologizes.

Louka: Not to you, his equal and enemy. To me, his poor servant, he will not refuse to apologize [B.Shaw. Arms and the Man].

Maslahat nutqiy aktining bevosita muloqot muhitida voqelanishi turli ko'rinishlarga ega. Maslahat ko'pincha so'zlovchining tashabbusi bilan bajarilsa, ba'zan berilgan savolga javob tarzida yuzaga keladi. Maslahat, shuningdek, rasmiy va norasmiy muloqot kontekstida berilishi mumkin. Umuman, maslahat nutqiy harakati faollashuvida quyidagilar muhim o'rin tutadi:



- muloqot ishtirokchilari o‘zaro yaqin munosabatda, oldindan tanish, hamkasb yoki qarindosh bo‘lishi mumkin;
- maslahat akti bajarilishida tinglovchining ruhiy holati muhim omildir, zero ruhiy jihatdan tayyor bo‘lmagan kishiga maslahat berish befoydali;
- maslahatni ijobiy qabul qilishda baho nutqiy aktning asosiy bo‘lagini tashkil qiladi;
- maslahat nutqiy aktining samarali voqelanishini ta‘minlashda dalillar muhim rolni o‘ynaydi. Dalil berilayotgan maslahatning asosli ekanligini isbotlaydi.

Bundan tashqari, maslahat nutqiy aktining samarasini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri uning xushmuomilalik tamoyiliga amal qilgan holda bajarilishi bilan bog‘liqligini unutmaslik lozim. Madaniyatshunos va tilshunoslar xushmuomilalik yoki hurmat kategoriyasining turli ta‘riflarini taklif qilishgan [Brown, Levinson 1978; Leech 2005; Grice 1975; Larina 2003]. Ushbu nazariya asoschilaridan bo‘lgan P.Braun va S.Levinsonning fikricha, nutqiy muloqotga kirishayotgan har bir shaxs, bir tomondan, ma‘lum nutqiy harakatlarni bajarishda erkin bo‘lishni xohlasa, ikkinchi tomondan, o‘z xatti-harakati suhbatdoshlariga ma‘qul kelishini rejalashtiradi. Ingliz tilshunosi R.Uotts so‘zlovchining nutqiy harakati qabul qilingan me‘yor doirasida bajarilishini xushmuomilalikning asosiy ko‘rsatkichi deb belgilaydi. Me‘yordan tashqaridagi harakat esa qo‘pol [salbiy baholi] yoki xushmuomila [ijodiy baholi] ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin [Watts 2003, 43-52].

T.V.Larinaning tavsificha, ijobiy va salbiy xushmuomilalik insonlar o‘zaro munosabatining asosiy mexanizmlari harakatga tushishining natijasidir. So‘zlovchi suhbatdoshi bilan muloqot yuritayotib, uni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘ziga yaqinlashtirishga intiladi va shu maqsadda ijobiy hurmat strategiyasidan foydalanadi. Olimaning qayd etishicha, turli strategiyalarning jalb qilinishi qaysi nutqiy akt faollashuvi bilan bog‘liq. Masalan, ijobiy hurmat strategiyasi asosan suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlash maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lib, tashakkur bildirish, minnatdorchilik, kompliment va baholash nutqiy aktlari voqelanishida namoyon bo‘ladi [Larina 2003, 88].

Muloqot kontekstida maslahat nutqiy aktining tavsiya, yo‘l-yo‘riq, pand-nasihat kabi ko‘rinishlari, ijobiy xushmuomilalik strategiyalari tatbiqida amalga oshiriladi. Tavsiya mazmuni faollashuvida ko‘zlanayotgan maqsad tinglovchiga biron bir muammoni hal qilishga u yoki bu vaziyatni bartaraf etishga yordam berishdan iboratdir. Masalan:

- *O‘z qishlog‘imiz desak bo‘laveradi. U ham o‘z bolangdek gap. Zeboxon Nizomjonni ko‘ngillapti. Yoshlarning ishiga biz nima ham derdik. Qishloq joy munaqa qilib yurishaverishsa gap-so‘z ko‘payib qolmasmikan deb qo‘rqaymiz. Rozilik bersang, shu ishning shundoq bo‘lganini*



hamqishloqlarga bildirib qo‘ysak-da, pishiqchilikka borib to‘y bo‘lmasa ham to‘ychiq qilib tinchitib qo‘ysak [Said Ahmad].

I should advise you to go to Persia with the DuPont's. That is interesting work, if you like [A. Christie];

That will be a slow train, I'm afraid sir. Better wait for the express [A.Christie].

Ushbu misollarda maslahat mazmunidagi nutqiy aktning ijobiy baho harakati orqali moslanayotganini ko‘ramiz. Birinchisida bu vazifani *That is interesring work* gapi bajarsa, ikkinchisida esa *that will be a slow train* izohi faollashmoqda.

Ushbu holatda so‘zlovchi paydo bo‘lgan muammoli vaziyatni baholashga asoslangan maslahat-tavsiya berish orqali yechishni taklif qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: CUP, 1987. – 310 p.
2. Cook G. The discourse of advertising. – London New York: Routledge, 2001. – 256 p.
3. Grice P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – 41-58 p.
4. Huddleston R. Introduction to the Grammar of English. – Cambridge University Press, 1995. – 483 p.
5. Leech G. Principles of Pragmatics. – London. – New York, 1986. – 250 p.
6. Watts R. Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 199 p.
7. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: 2003. – 287 с.